

ZAMONAVIY MAVZUDAGI ASARLARDA ZAMONDOSH OBRAZINING YORITILISHI

Ravshanova Mahliyo Shokir qizi

Teatr san'ati mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *ushbu maqolada hozirgi kunda teatrlarimizda sahnalashtirilayotgan asarlarning mavzu va g'oyasi, ularda ilgari surilayotgan insoniylik g'oyalarining maqsadi va vazifasi haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *teatr, pyesa, sahna asari, mavzu, rol, obraz, xarakter.*

Yoshlarni barkamol shaxs, yetuk inson, millat jonkuyari, mardona fuqaro qilib tarbiyalashda bugungi kunda o'zining pok niyatlari, ezgu amallari va bilagining kuchi, qalbining qo'ri bilan uyqu nimaligini bilmay vatanini himoya qilayotgan, o'zining kamtarin mehnati bilan mamlakat tinchligi yo'lida tolmay, mehnatni qahramonlik darajasiga olib chiqayotgan va yoki yashash tarzi va tabiati boshqalardan uncha farq qilmaydigandek tuyulsa-da, or-nomusni saqlash, himoya qilish masalasiga kelganda hech nimadan tap tortmay, murosasiz qahramonga aylanadigan, hatto bu yo'lida o'z yaqinlari, hatto yolg'izgina jigarbandini ham kechira olmaydigan milliy qahramonlarning siymolarini sahnalarga olib chiqish vazifasi ham teatrlarimiz ijodkorlari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Teatrlarimiz ijodkorlari ham buni anglagan holda yoshlarga qahramonlik, millat sha'ni uchun kurash tuyg'ularini singdirish yo'lidagi sayi-harakatlar natijasi o'laroq bir qator spektakllarni sahnaga olib chiqdilar.

Dramatik asar mazmuni – bu dramaturg tomonidan anglangan va aks ettirilgan hayotiy materialdir. Bu ishtirok etayotgan shaxslar muammolari va kechinmalari, ularning uzviy rivojidagi muallif tasvirlagan hayot in'ikosi zanjiridir. Odamlar rivojlanib borayotgan voqealar ishtirokchisi sifatida, ma'lum hayotiy vaziyatlarda tasvirlanadi. O'zbek Milliy Akademik drama teatrida namoyish etilayotgan "O'zgalar dardi" asarida ham shunday. Unda bosh qahramon Zahro Samadovna bilan bog'liq voqealar qalamga olinadi.

Oliy toifali shifokor Zahro xonim, nafaqaga chiqqan bo'lsa-da, hamon o'zgalar dardi bilan yashaydi. Hamisha bemorlarni da'volab, evaziga hech narsa talab etmaydi. Chunki u va uning atrofidagi jarroh Zafar Safarovich hamda vafot etgan jufti Ilhom Samadov kabi shifokorlarning qasami haqiqiy.

Uning bolalikdagi qadrdon dugonasi bor, doimiy mehmoni bo‘lib turadi. Ikkisi ham turmush o‘rtog‘idan erta ajralgan, farzandlari mehriga muhtoj. Ammo tabiatan ikki xil dunyo.

Ruzvon sobiq dehqon. U paxta dalalarida ulg‘aygan. Zahro Samadovna esa hikmatlar ichra katta bo‘lgan. Ruzvonning farzandlari va kelinidan arazlab kelishi bilan asar jonlana boshlaydi. Ikki dugonaning bahslari orqali kundalik hayotimizda nuqsonlar ochiladi. Voqealar maydoniga bu xonadonning doimiy do‘sti hisoblangan Zafar Safarovich ham kirib keladi. Ammo Zahro xonimga bemorlari chin dildan in‘om etgan tort haqida bilgach, xafa bo‘lib ketib qoladi. Bu orada doktorning og‘li Shokir ham ishtrok etadi. Ota-bola bir-biriga qarshi. Chunki ota o‘zgalar dardi, o‘g‘il o‘z hayoti uchun yashamoqchi.

Asar yakunlanib borarkan, Ruzvon xolani kelini Charos olib ketishga keladi. O‘sha jarayonda qaynonaga rahmingiz keladi. Chunki, kelinning rayiga qarab yashash ham oson emas ekan. Bu xulosa Ruzvon xolaning dugonasiga nisbatan “bo‘lmasa olib ketmaydi-da” deya bergan izohlarida aks etadi.

Zahro Samadovnaning ham o‘z qayg‘usi bor. Yakka-yu yagona o‘g‘il onasi bilan birga turmaydi. Uni bemehr bo‘lganlikda ayblaydi. Biroq yechimda ular bir-birlarini tushunishadi.

Mavzu g‘oya bilan uzviy bog‘liq. Asarning janri, syujeti va uslubi mavzu va g‘oyaga qarab tanlanadi. Mavzu tanlashda, ayniqsa, uning talqinida muallifning g‘oyaviy mavqei katta rol o‘ynaydi. Asarning konkret mazmunida bosh mavzu yana mayda mavzularga bo‘linadi va bularning har biri g‘oyaviy mazmunning biror tomonini ifodalaydi. Bir mavzu bir necha muallif tomonidan turlicha yoritilishi, talqin etilishi ham mumkin. Bunda har bir muallif o‘z oldiga qo‘ygan g‘oyaviy-ijodiy vazifalar o‘ziga xos uslub va mazmunni belgilaydi.

Soddaroq qilib tushuntirilganda, mavzu “asar nima haqida?” degan savolga javob bo‘ladi. Ammo yuqorida ham aytib o‘tildiki, bir mavzu bir necha muallif tomonidan turlicha yoritilishi, talqin etilishi ham mumkin. Men bunga biroz o‘zgacharoq yondashaman. Tahlil obyekti spektaklga aylangan ekan, rejissor ham muallif. Faqat u dramaturg kabi qalam bilan emas, aktyorlar orqali o‘z qarashlarini, o‘z ijodkorligini namoyish etadi.

“O‘zgalar dardi”da bosh mavzu va mayda mavzular juda ko‘p. Masalan, asar qahramonlaridan biri Zafar Samadov tomonidan aytilgan “Biz qariyalar mana shu dumga o‘xshaymiz. Bor bo‘lsak yaxshi, yo‘q bo‘lsak, undan-da yaxshi” jumalari yoki Ruzvon obrazi orqali hirgoyi qilingan “Qoldim qarib, bo‘ldim g‘arib...Yig‘ladim zor do‘st axtarib” so‘zlari orqali “mavzu – qarovsiz qolgan qariyalar” deb tushunishimiz mumkin. Ammo spektakl nomidan kelib chiqib, shuningdek, bosh qahramon hayot yo‘llarini kuzatgach, asar “shifokorlar hayoti haqida” ekan degan xulosaga ham kelamiz.

Bir narsani aniq aytish mumkin, dramaturg va rejissor alohida-alohida shaxs. Ularning dunyoqarashi ham ikki xil. Shu sababmi, pyesani o‘qib chiqqanimda, mavzu – shifokorlar haqida degan yakuniy fikr bo‘ldi. Lekin rejissyor talqini va uning asar yakunida bergan xulosasi orqali farzandiga intizor ota-onalarni ko‘rsatib beribdi, degan xulosaga kelinadi.

“O‘zgalar dardi” asarida dramaturg g‘oyasi odamlarni halol yashash, o‘zgalar hayoti haqida qayg‘urishga da‘vat etadi. Uning Zahro Samadovna obrazi orqali “Faqat inson o‘zgalar baxti uchun o‘zini qurbon qiladi, o‘zgalar dardiga yig‘laydi. Mana ko‘rasan, yaqin kelajakda hamma mamlakatlar birlashib, xudbinlik balosini yo‘q qiladilar. Natijada yer yuzidagi qirg‘inbarot urushlar tugaydi. Hamma bir-biri uchun qayg‘urib yashashni boshlaydi” kabi fikrlari muallifning ezgu intilishini ko‘rsatib beradi.

Rejissor esa dramaturg g‘oyasiga tayangan bo‘lsa-da, yakundagi voqeaga biroz o‘zgartirish kiritib, (ya‘ni dramaturg asariga ko‘ra, farzandining qo‘lidan osh yemoqchi bo‘lgan ona Zahro xonim yana o‘z kasbiga sadoqati, o‘zgalar qayg‘usi bilan sahnani tark etadi, rejissyor esa uni telyefon qo‘ng‘irog‘iga “yo‘q” deb javob berishi bilan “farzandiga bo‘lgan muhabbati ustunligini ko‘rsatib qo‘yadi”, garchi keyinroq doktor bilan ketmoqchi ekanligini ko‘rsatib bersa-da) “keksa ota-onalarimizni qadrlaylik” deya da‘vat beradi.

Pyesani o‘ziga xos talqin qilishga e‘tiroz bildirish mumkin emas. Bu teatrning to‘g‘ridan-to‘g‘ri vazifasi hisoblanadi. Bu holatda teatr yangi asar – spektakl yaratayotgan bo‘ladi, xolos.

“O‘zgalar dardi” asari sahnaga ko‘charkan, undagi personajlar ko‘z oldimizda jonlana boshladi. Zahro Samadovnani O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Zokirova, Ruzvon rolini O‘zbekiston xalq artisti Muqaddas Xoliqova, jarroh rolini O‘zbekiston xalq artisti Erkin Komilov, Shokirni Farrux Botirov, Umid personajini Mehriddin Rahmatov, Charosni Nigina Anorboyeva ijro qilishdi.

Xullas, spektakldagi har bir personajga xarakter yuklatilgan. Ularning kesishadigan, itarishadigan nuqtalari bor. Spektaklni tomosha qilib ko‘rsangiz, bunga yana bir bor guvoh bo‘lasiz.

“O‘zgalar dardi” spektaklida konflikt ota-onalar va farzandlar o‘rtasida yuz beradi. Zahro xonim uchun Umid, Ruzvon xola uchun Charos va qizlari, Zafar Safarovich uchun Shokir. Farzandlarning orzu-istaklari boshqa, ota-onalar esa boshqa narsani xohlashadi.

Masalan, Z. Samadovna hamma bir-biri haqida qayg‘urishini, begona deb emas, o‘z bolasidek qarashini, o‘shanda dunyoda urushlar bo‘lmasligini istaydi. Umid bo‘lsa, o‘z farzandlarini ustun qo‘yadi.

Doktor Zafar esa yana ishga qaytib, odamlarga beminnat yordam berishni, o‘g‘li ham o‘z kasbini davomchisi bo‘lishini orzu qiladi, biroq o‘g‘il o‘z kasbidan ko‘ra obro‘liroq, yog‘liroq mansabga erishib, dabdabali hayot kechirishga intiladi.

Ruzvon farzandlaridan xafa. Uni o‘z bolalari aqlsizlikda ayblaydi. Aytishiga qaraganda, qizi Risolat “aqli kirsas, qaytib keladi” deganmish. Biroq u har doim bolalari to‘g‘risida o‘ylaydi. Hatto o‘lganimda, ko‘mishga qiynalishmasin deb, “o‘limlik” yig‘adi. El ichida bolalarini noshud deya atashlarini istamaydi.

Nazarimizda, rejissor yechimi tomoshabin uchun ham, mutaxassislar uchun ham yaxshi topilgan. Chunki dramaturg Shokir taqdirini ochiq qoldirgan edi. Spektaklni ko‘rib baho berar ekanmiz, ular o‘rtasida keskin farqlar mavjud emas. Faqat rejissorlik talqini qo‘shilgan, xolos. Albatta, dekoratsiya, musiqa, liboslar, aktyorlar ijrosi bir-biriga mutanosib. Xarakterlarga munosib xatti-haraklar, kulgi uyg‘otguvchi holatlar qo‘shilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Respublikamizning yetakchi teatrlari sahnalarida vatanparvar va ziyoli insonlarning o‘ziga xos siymolari yaratildi. Ularning badiiylik va barkamollik darajalari esa turli darajada. Bunday izlanishlarda O‘zbek Milliy akademik teatri ijodiy jamoasi yetakchilik qiladi. Shu bilan birga bo‘y ko‘rsatayotgan natijalar, yutuqlar olib borilayotgan izlanishlarning besamar ketmayotganini ko‘rsatib, ular tomoshabinlarga ma‘naviy ozuqa beruvchi, namuna bo‘la olarli zamondoshlarimizning bundan-da to‘laqonli obrazlari yaratilishiga zamin bo‘lishiga ishonch uyg‘otadi.